

Qo'ziyeva Zebixon Umar qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Toshkent, O'zbekiston.

SHARQ XALQLARI MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VA DOSTONCHILIKNING O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqola Sharq xalqlari ma'naviyatini yuksaltirishda xalq og'zaki ijodi va dostonchilikning ahamiyatini ochib beradi. Xalq og'zaki ijodi, afsonalar, rivoyatlar va dostonlar orqali ma'naviy qadriyatlar, tarixiy xotira va tarbiyaviy funksiyalarni aks ettiradi. Dostonchilik, o'z navbatida, xalq ruhiyatini, qahramonlik va axloqiy fazilatlarni ulug'laydi. Ushbu ijodiy shakllar yosh avlodlarni tarbiyalashda, o'zlikni anglashda va ijodiy faollikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Sharq xalqlari, ma'naviyat, xalq og'zaki ijodi, dostonchilik, tarbiyaviy funktsiya, tarixiy xotira, ijodiy faoliyat, qahramonlik, axloqiy qadriyatlar, madaniyat.

Qo'ziyeva Zebixon Umar qizi

Independent Researcher

Toshkent, O'zbekiston.

THE ROLE OF FOLK ORAL LITERATURE AND EPIC POETRY IN ELEVATING THE SPIRITUALITY OF EASTERN PEOPLES

Abstract

This article reveals the significance of folk oral literature and epic poetry in elevating the spirituality of Eastern peoples. Folk oral literature, including

legends, tales, and epics, reflects spiritual values, historical memory, and educational functions. Epic poetry, in turn, glorifies the spirit of the people, heroism, and moral virtues. These creative forms play a crucial role in educating younger generations, fostering self-identity, and enhancing creative activity.

Key words: Eastern peoples, spirituality, folk oral literature, epic poetry, educational function, historical memory, creative activity, heroism, moral values, culture.

РОЛЬ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА И ЭПИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОСТИ ВОСТОЧНЫХ НАРОДОВ

Аннотация

В данной статье раскрывается значение народного устного творчества и эпической поэзии в повышении духовности восточных народов. Народное устное творчество, включая легенды, сказания и эпосы, отражает духовные ценности, историческую память и образовательные функции. Эпическая поэзия, в свою очередь, прославляет дух народа, героизм и моральные добродетели. Эти творческие формы играют важную роль в воспитании подрастающего поколения, формировании самоидентичности и повышении творческой активности.

Ключевые слова: Восточные народы, духовность, народное устное творчество, эпическая поэзия, образовательная функция, историческая память, творческая активность, героизм, моральные ценности, культура.

Kirish

Dunyodagi har bir xalqning milliy o'zligini anglash ma'naviy merosini o'rganishdan boshlanadi. Sharq xalqlarining ma'naviy merosi esa azaldan chuqur axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan. Vafo ham sadoqat, poklikni kuylash Sharq adabiyotida qadim-qadimlardan davom etib kelayotgan muqaddas

mavzulardan biridir. Sharqning buyuk shoirlari bu g'oyalarni turli janlarda g'oyat ehtiros va so'nmas ixlos bilan tasvirlaganlar. Bu mustahkam axloqiy kodeks xalqlarimiz turmushiga, ongiga singib, katta ijtimoiy ma'no kasb etib keldi.

Darhaqiqat, jasorat, saxovat, mardlik, vafo, sadoqat, halollik, fidoiyluk kabi axloqiy qadriyatlar badiiy so'z san'atining eng qadimiy shakllaridan biri bo'lgan epik asarlarda o'z ifodasini topa boshlagan. Sharq xalqlari tarixi va madaniyatida xalq og'zaki ijodi va dostonchilik alohida ahamiyatga ega. Ular nafaqat o'z xalqlarining ma'naviy merosini saqlab qolishga, balki ularni tarbiyalash va yuksaltirishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni namoyish etib kelgan.

Xalq og'zaki ijodi — bu avloddan avlodga o'tadigan, xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlarini, qadriyatlarini va jahondan qarashlarini aks ettiruvchi adabiy shakldir. U og'zaki usulda, ko'pincha dostonlar, na'lar, maqollar va afsonalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi, xalqlarni birlashtiruvchi va ularning madaniy merosini saqlovchi muhim vositadir.

Xalq og'zaki ijodi, asosan, afsonalar, rivoyatlar, qissa va dostonlardan iborat bo'lib, u xalqning tarixiy xotirasini, madaniyatini va urf-odatlarini o'zida mujassam etadi. Ushbu ijodiy shakllar orqali xalqlar o'z hayotiy tajribalarini, bilim va ko'nikmalarini ifoda etadilar.

Jahon falsafasining tarkibiy qismi bo'lgan Sharq falsafasida insonda ikki qarama-qarshi asos: modda va ruh mavjudligi alohida ta'kidlanadi. Ana shu ikki asos inson vujudida mutanosib bo'lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqada qolib ketmasligi kerak. Agar shu tartib buzilib, moddiylik ruhdan ustun kelib, ruh jism quliga aylanib, unga xizmat qilgudek bo'lsa, unda inson amaliy fazilatlari keyinga surib tashlanadi. Aksincha, ruhiy-ma'naviy tomonlari taraqqiy etgan insonlarda aqlu-zakovat, insofu-diyonat, odobu-axloq, ilmu-ma'rifat, mol-dunyoga berilish, havoiiy nafslarga qul bo'lish singari xato va

nuqsonlardan ustuvorlik qiladi. Ruhiiy-ma'naviiy jihat - insonni inson qiladigan, uning hayotini go'zallashtiradigan fazilatlaridir.

Sharq epik an'analari rivojida Konfutsiiy ta'limoti alohida o'rin tutadi. Bilim (chji) va uning kelib chiqishi haqida fikr yuritib, Konfutsiiy uni qadimgi kitoblarni o'rganish va qadimgi ajdodlar tajribasidan iqtibos qilishda, deb bildi. Uningcha, bilimning asosini, manbaini qadimgi rivoyatlar va solnomalar tashkil etadi. Shuning uchun, konfusiychilikka jamiyat taraqqiyotidagi ilgariigi va yangi tajribaga tanqidiy munosabatda bo'lish, ulardan xulosalar chiqarish xos bo'lmagan, har qanday yangi hodisa eski tajriba nuqtai nazaridan baholanar va o'tmishga borib taqalar edi.

Axloqiiy qadriyatlar o'zining yorqin ifodasi topgan epik janrga mansub mashhur asarlardan biri Abulqosim Firdavsiyning (940–1020) «Shohnoma»sidir. U qadimiiy afsonalar, qahramonlik dostonlarini va Eronning Iskandar Zulqarnayn davridan boshlab Sosoniiy shohi Yazdigard III ning o'limi (651 yil)gacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi.

Xalq og'zaki ijodi, shuningdek, axloqiiy qadriyatlarni yosh avlodlarga yetkazishning samarali vositasidir. Dostonlar va qissalar orqali insoniiylik, jasorat, mehr-oqibat kabi muhim fazilatlar tarbiyalanadi. Misol uchun, Alisher Navoiy, Bobur, va boshqa buyuk shoirlar yaratgan dostonlar nafaqat adabiiy meros, balki ma'naviiy tarbiyaning muhim qismi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, axloqiiy qadriyatlarni ulug'lash Sharq epik an'analariining muhim xususiiyati bo'lib, asrlar davomida nafaqat adabiiyot balki falsafiiy tafakkur rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi, sharqona mentalitetning shakllanishida ustivor omilga aylandi. Shu bilan birga nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlari madaniiyati, adabiiyoti, falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Qadimiiy madaniiyat makoni bo'lgan Markaziiy Osiyoning qulay geografik jaylanishi, tabiiati, iqlimi mintaqada ijtimoiy-iqtisodiiy taraqqiiyotning avvalroq boshlanishini ta'minladi va Sharq bilan G'arb, Mesopatamiya, Eron, Misr keyincha Yunoniston va Rimni Xitoy va Hindiston bilan bog'lovchi, turli xalqlar madaniiyatining chatishtiruvini ta'minlovchi halqa vazifasini o'tadi.

Shuningdek, Gopatshoh bilan Minotavr, yunon mifologiyasi Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo'lgan mif, afsona va folklor asarlari o'rtasidagi o'xshashlikning mavjudligi aniqlanganligidan kelib chiqib, o'zaro munosabat, bir madaniyat va adabiyot ikkinchisini boyitishi uzoq o'tmishdan boshlanganligini ta'kidlagan.

Dostonlar xalq ozaki ijodining eng yirik, salmoqdor, badiiy barkamol janridir. Ular ma'naviyatimiz va badiiy so'z san'atimizning tarixiy asoslari va zamini bo'lishi bilan birga uning bugungi holatini yanada boyituvchi, rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbai hamdir. Dostonlar ajdodlar va avlodlar jonli aloqasini, vorisligini o'zida mujassamlashtiradi. Ular xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langanligi tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa yuksak axloqiy g'oyalarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun ham dostonlarni to'plash, o'rganish va nashr etish hamisha dolzarb vazifa bo'lib kelgan.

Xalq og'zaki ijodi va dostonchilik, birinchi navbatda, xalqning ruhiy holatini shakllantiradi. Ular orqali avlodlar o'rtasida ma'naviy va madaniy bog'lanish yaratiladi. Dostonlar, o'zlarining qahramonlari orqali, yoshlarni o'zlariga o'xshagan qahramonlarga intilishga undaydi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi, an'analarning va qadriyatlarining saqlanishiga yordam beradi, chunki u xalqni birlashtiradi va ma'naviy tuyg'ularni kuchaytiradi.

Sharq mamlakatlarida xalq og'zaki ijodi va dostonchilik, xalq ma'naviyatini yuksaltirishda quyidagi jihatlarda muhim rol o'ynaydi:

1. Tarbiyaviy funksiya: Yoshlarni axloqiy qadriyatlar va urf-odatlar bilan tanishtiradi. Bu, ularning o'zligini anglashlari va madaniyatini qadrlashlariga yordam beradi.

2. Tarixiy xotira: Xalq og'zaki ijodi tarixiy voqealarni, shaxslarni va voqealarni esga olishga imkon beradi. Bu esa, xalqlarning tarixiy merosini saqlashga xizmat qiladi.

3. O'zlikni anglash: Dostonlar va rivoyatlar xalqning o'zligini anglashga yordam beradi. Ular o'z xalqi, madaniyati va an'alarini anglashda muhim rol o'ynaydi.

4. Ijodiy faollik: Dostonchilik va og'zaki ijod yosh ijodkorlarni ilhomlantiradi, yangi ijodiy g'oyalarni rivojlantirishga turtki beradi.

Hozirgi kunda xalq og'zaki ijodi va dostonchilik rivojlanayotgan globalizatsiya sharoitida yanada dolzarblashmoqda. Yosh avlod, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali bu ijod shakllarini o'rganishga va rivojlantirishga intilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, xalq og'zaki ijodini yanada keng tarqatish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Sharq xalqlari ma'naviyatini yuksaltirishda xalq og'zaki ijodi va dostonchilikning o'rni beqiyosdir. Ular nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlaydi, balki kelajak avlodlarga zarur ma'naviy qadriyatlarni yetkazadi. Xalq og'zaki ijodi va dostonchilik, shuningdek, milliy birlikni mustahkamlashda va xalqning ruhiy holatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ularni saqlash va rivojlantirish har bir xalqning burchidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A'zamov, T. *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2010
2. Qurbonov, O. *Dostonchilik va uning ma'naviy ahamiyati*. Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2015
3. Qodirov M. *Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar)*. TDSHI, 2010.
4. Khoshimov, B. *Xalq ma'naviyati va adabiyoti*. Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2012
5. Khamroev, S. *Sharq xalqlari adabiyoti va madaniyati*. Tashkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2018
6. Imomnazarov M. *Adabiyot va ma'naviyat. (Mintaqa mumtoz adabiyotining ijtimoiy mavqei haqida). //Xorijiy Sharq xalqlari adabiyoti va*

adabiy manbashunosligining dolzarb masalalari. Xalqaro anjuman materiallari.
2010

7. Shukurov, A. *Ma'naviyat va tarbiya*. Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2020

8. Qoziboyevna, M. S. (2024). INTERNATIONAL COOPERATION IN UZBEK CLASSICAL MUSIC IN RECENT YEARS. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(6), 1-5.

9. Qoziboyevna, M. S. (2024). Development Of Folk Oral Creativity In The Kashkadarya Region. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(6), 1-6.

10. Murodova, S. Q. (2024). THE ACTIVITIES OF CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS IN UZBEKISTAN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(10), 8-11.

11. Ахмедова, М. (2023). НОТЎЛИҚ ОИЛАДА ВОЯГА ЭТАЎТГАН БОЛАЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ, ПСИХОЛОГИК ВА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҲОЛАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I).

12. TURSUNOV, X. (2024). VOHA SANOAT TARIXI BUNYODKORI, QASHQADARYO TARIXCHILARINING ZABARDAST VAKILI PROFESSOR OBOD JO'RAQULOVNING ILMIY MEROSI. *UzMU xabarlari*, 1(1.3), 4043-4043.

13. Tursunov, X. N. (2023). О 'ZBEKISTONDA TARIXCHI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH JARAYONI TENDENSIYALARI. *Экономика и социум*, (4-2 (107)), 283-286.